



YOSH ILMIY TADQIQOTCHI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 12-13-mart



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Buxoro shahri, 2025-yil 12-13-mart

BUXARA -2025
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

BOBURIYLAR SULOLASI DAVRIDA HINDISTON ME'MORCHILIGI

*Obidova Gulchehra Qobil qizi
Buxoro Davlat Universiteti Tarix va
Yuridik fakulteti 4 bosqich talabasi .
Ilmiy rahba: Utayeva Feruza Xolmamatovna*

Annotatsiya. *Ushbu maqola Boburiylar sulolasi davrida Hindiston me'morchiligining rivojlanishi va uning o'ziga xos uslublari yoritilgan. Maqolada fors, turk va hind an'analarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan me'morchilik elementlari, bezak san'ati va arxitektura tamoyillari, shuningdek, Toj Mahal, Qizil Qal'a, Humoyun maqbarasi va Jami Masjid kabi yirik me'moriy yodgorliklarning yaratilish jarayoni tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot madaniyatimiz va tarixiy merosimizni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar : *Boburiylar madaniyati, me'morchilik, arxitektura, Monumental binolar, Toj Mahal, Jome masjidi, Buland Darvaza.*

Kirish. Boburiylar sulolasi davri Hindiston me'morchiligi tarixida inqilobiy yangiliklar va san'atning yangi darajalarini namoyon etgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda fors, turk va mahalliy hind an'analari uyg'unlashib, o'ziga xos arxitektura uslubini shakllantirdi. Boburiy hukmronlik ostida yaratilgan inshootlar nafaqat estetik go'zalligi, balki innovatsion qurilish texnologiyalari va murakkab bezaklari bilan ham ajralib turadi. Ushbu maqolada Boburiylar davrida Hindiston me'morchiligining asosiy tamoyillari, yirik me'moriy yodgorliklar va ularning yaratilish jarayoni tahlil qilinadi, shuningdek, ularning madaniy va tarixiy ahamiyati keng yoritiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) — o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy sohadagi yutuqlari bilan mashhur bo'lgan, shu bilan bir qatorda shoir, shuningdek, Hindistonda yangi bir davrni boshlab bergan buyuk hukmdor edi. “Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-

ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega”,- degan edi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹⁶⁵. [1]

Boburiylar saltanati Hindiston tarixida muhim o‘rin tutgan davrlardan biri bo‘lib, XVI asrdan XVIII asrgacha davom etgan. Bu davr Hindiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining rivojlanishida, shuningdek, mamlakat hududiy va siyosiy jihatdan birlashishida muhim rol o‘ynadi. Boburiy hukmdorlar nafaqat siyosiy boshqaruvda, balki san‘at, me‘morchilik va adabiyot sohalarida ham ulkan yutuqlarga erishgan. Ushbu davrda Hindiston iqtisodiyoti savdo-sotiqning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarishning o‘sishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, madaniy hayotda ham boy meros yaratilgan bo‘lib, u dunyo tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Boburiylar saltanatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid masalalarni o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbdir. Hindistonning birinchi Bosh vaziri Javaharlal Neru “Boburning Hindistonga kelishi Hindistonda katta o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, san‘at, hayot, arxitektura va boshqa madaniyat sohalarida yangi va farovon rivojlanishni olib keldi”, deb aytgan. Turkistondan kelgan xalqlar hindlarning urf-odatlarini qabul qilib, mahalliy aholiga aylanishdi va haqiqiy hindlar bo‘lib ketishdi. Bobur vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan Humoyun o‘z hukmronligining asosiy qismini mamlakatni birlashtirish va ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashishga bag‘ishladi. Natijada, mamlakat islohotlar uchun imkoniyat yaratolmadi. Ammo Akbar Shoh davrida Boburiylar davlati kengayib, mustahkamlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojlanib, davlat buyuk Boburiylar saltanati sifatida tanildi, qo‘shni va xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Akbar Shohning 50 yillik hukmronligi davomida xorijiy mamlakatlar, ayniqsa g‘arbiy va shimoliy qo‘shnilari bilan aloqalar

¹⁶⁵ Madraimov.A. Buyuk shoir va olimning ajoyib taqdiri, g‘aroyib sarguzashtlari va ibratli hayoti. Zahiriddin Muhammad Bobur.Monografiya.- T:"NIF MSH".2024.B-294.

rivojlandi. Markazlashgan Akbar saltanati mamlakat aholisi va xorijliklar tomonidan Hindiston davlati sifatida tan olindi.

. Bobur va uning vorislari hukmronlik qilgan Hindiston XVI—XVII asrlarda o‘zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Qisqa vaqt ichida, Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, parokanda yerlarni birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini yo‘lga qo‘yish, bog‘lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhurligini har tomondan saqlab kelayotgan me‘moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o‘g‘illari va avlodlari davrida keng miqyosda yoyildi. Hindiston san’ati va me‘morchiligiga Markaziy Osiyo uslubi kirib kela boshladi. Bobur va uning avlodlari huzurida o‘sha davrning ilg‘or va zehni o‘tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarni mujassam etgan ma‘naviy-ruhiy muhit Hindistonda vujudga keldi. Boburiylar davlatdagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlar’l Neru shunday deb yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, me‘morchilikka toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa birbirlariga tutashib ketdi¹⁶⁶.[2]

Boburiylar tomonidan qurilgan dastlabki yodgorliklar, asosan, masjidlar va maqbaralar edi, ularda o‘sha davrdagi islom arxitekturasining o‘ziga xosliklari ko‘zga tashlanadi. Islom dini kirib kelgach, uning ta’siri me‘morchilik va tasviriy san’atda o‘z ifodasini topdi. Shimoliy Hindistonda O‘rta Sharq me‘morchiligi an‘analari asosida yaratilgan masjid, minora, maqbaralar yuzaga kela boshladi.

Turk me‘morchiligi, asosan, islom arxitekturasining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘zining geometrik naqshlari, katta masjidlar, turli xil mozor va maqbaralar bilan ajralib turadi. Bobur Hindistonga kelgach, turk islom arxitekturasining ko‘plab xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan inshootlarni qurishni boshladi. Me‘morchilikda keng ishlatilgan haykaltaroshlik san’ati o‘rnini

¹⁶⁶ Eshov.B.J.Odilov.A.A.O'zbekiston tarixi.II-kitob.-T:,"Donishmand ziyosi".2020.B-149.

o‘yma va chizma naqshlar egalladi, jonli narsalar tasvirini ishlash kamaydi. Shunga qaramay, hind san’ati an’analari o‘z umrini yangi davrda ham davom ettirdi. XIII asrda Dehlida qurilgan “Quvvatul islom“ masjidi minorasi bunga misoldir.

Bugungi kunga qadar Hindistonda Bobur Mirzodan uchta maqbara saqlanib qolgan. Jumladan; Bog‘i Qobuliy va yana ikkita masjid; ulardan biri Sambhalda , ikkinchisi esa Ayodhiyada qad ko‘targan. Ularning paydo bo‘lishida Boburning o‘zi va aqoriblari rahbarlik qilishgan. Panipatdagi Bog‘I Qobuliy masjidi Hariyana shtatida joylashgan bo‘lib, ushbu masjid qurilishi 1528- yilda yakunlangan. Masjidning markaziy qismida qiblaga qarab qaratib qurilgan peshtoq qad ko‘targan. Masjid mehrobi toshdan terilgan, inshootning qolgan devorlari g‘ishtdan tiklangan bo‘lib, sirti suvoqlangan.

Bizgacha saqlanib qolgan Bobur Mirzo masjidlaridan uchinchisi 1527—1529-yillarda Fayzobod nohiyasida Ayodhiya qishlog‘ida, Ghagahra daryosi sohilida Boburning a‘yonlaridan biri Mir Boqiy toshkandiy tomonidan tiklangan. Bobur ushbu masjid tiklanishida shaxsan rahbarlik qilgan¹⁶⁷[3]. Bundan tashqari Boburning avlodlari tomonidan ham ko‘plab imoratlar qurilgan. Xususan, bulardan biri Toj Mahaldir. Boburning evarasi Shoh Jahon qurdirgan “Tojmahal” maqbarasi yuz yillardan buyon jahon xalqlari e‘tiborini “yeti mo‘jizaning biri” sifatida o‘ziga tortib turibdi. Xalqning Shoh Jahonni Xazrati Jahon, Bahodir Shohjahon, Shohjahonobod atamalari bilan yodga olinishining boisi ham ana shundadir.

Toj Mahal Hindistonning Agra shahrida joylashgan mashhur maqbara bo‘lib, dunyoning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi. Uni 1632–1653-yillar oralig‘ida Boburiylar imperatori Shoh Jahon o‘zining sevimli rafiqasi Mumtaz Mahal xotirasiga atab qurdirgan. Toj Mahal Agra shahrida bunyod etilgan. Qurilish ishlari 1632-yil boshlanib, 1653-yil qurib bitkazilgan. Toj Mahalning markaziy qismi marmardan qurilgan kubballi maqbara, uning balandligi 73 metrni tashkil qiladi. Maqbaraning har burchagida nozik ishlangan to‘rt minora

¹⁶⁷ Bobur Xalqaro Fondi “Zahiriddin Muhammad Bobur” T.: Sharq -2008. B 9-10

joylashgan. Atrofida keng bog‘lar, suv havzalari va favvoralar bor, ular islomiy “jannat bog‘i” tushunchasiga mos keladi. Ichki qismida Mumtaz Mahal va Shoh Jahonning qabr toshlari joylashgan (asl qabrlar pastki qavatda). Qurilishda asosiy me‘mor usta Ahmad Lahori hisoblanib, 20 mingga yaqin ishchi va ustalar ishtirok etgan. Markaziy gumbazdagi nozik naqshlar va yozuvlar Qur‘ondan olingan oyatlar bilan bezatilgan. Toj Mahal rangini kun vaqtiga qarab o‘zgartiradi: ertalab pushti, kunduz oq, kechqurun esa kumushrang tus oladi. 1983-yilda UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Har yili millionlab sayyohlar Toj Mahalni ko‘rish uchun Agraga tashrif buyurishadi. U “Sevgi ramzi” sifatida mashhur bo‘lib, dunyoning eng go‘zal maqbaralaridan biri sanaladi.

Shohjahon tarix giganti hisoblanadi. Uning ulkanligi urushlari, g‘alabalari bilan emas, balki buyuk san‘at obidalari bilan belgilanadiki, bular shu paytgacha kishini hayratga solib kelmoqda. Bu o‘lmas san‘at va me‘morchilik obidalari jumlasidan Dehlidagi “La‘l qal‘a, uning ro‘parasidagi masjidi jome, Agradagi Toj Mahal maqbarasidir. La‘l qal‘aning devorlari qizil toshlardan terilgan. Uning ichida juda ko‘p bo‘limlar bo‘lib, ular podshohga, uning ayollariga, yaqin kishilariga, askarlariga, podshohning xususiy va umumiy majlislariga mo‘ljallangan. Masjid esa qurilish olamining tuhfasini hisoblanadi. Uning nomi Masjidi Lulu, ya‘ni durdona masjid bo‘lib, eng toza, sof marmarlardan qurilgan. Mazkur qal‘a Agrada Akbar qurgan la‘l qal‘a singari Jamna daryosining bo‘yiga qurilgan. Uning tashqi ko‘rinishi ham Agradagiga o‘xshaydi. Bu qal‘a doimo boburiy podsholarining oromgohi bo‘lgan. Inglizlar oxirgi boburiylar podshohi Bahodirshohni u yerdan chiqarib, egallab olishgan. Inglizlar Hindistondan chiqib ketmagunlaricha, bu qal‘ada bo‘lishib, o‘zlaridan keyin ko‘p buzg‘unchilik ishlarini qoldirib ketishgan. 1637-yilda Dehlida Shohjahon tarafidan qurilgan bu hashamatli qasrning inglizlardan keyin ba‘zi qismlari qolgan. Lekin shunga qaramay dunyoning eng go‘zal binolaridan hisoblanadi. Hind hukumati keyinchalik bu yerda muzey tashkil qilgan.

XULOSA. Xulosa shundan iboratki, Boburiylar sulolasi Hindiston tarixida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan chuqur iz qoldirgan. Sulola asoschisi

Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy g'alabalari bilan bir qatorda, adabiyot va ilm-fan sohasida ham katta yutuqlarga erishgan. Akbar davrida amalga oshirilgan diniy bag'rikenglik siyosati va ta'lim sohasidagi islohotlar Hindiston jamiyatining turli qatlamlarini birlashtirishda muhim rol o'ynadi. Shoh Jahon davrida me'morchilikning rivoji va bunyod etilgan obidalar Hindiston madaniyatining boy merosiga aylangan. Bizga Bobur va Boburiylardan ulkan meros qolgan. Boburiylar qoldirgan bebaho meros bu ular bunyod etgan inshootlardir. Bugungi kunda Hindiston, Pokiston va Afg'onistonda Bobur, uning avlodlari tomonidan qurilgan ko'plab obidalar dunyo jamoatchiligi e'tiborini qozonib kelmoqda.

ABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madraimov.A. Buyuk shoir va olimning ajoyib taqdiri, g'aroyib sarguzashtlari va ibratli hayoti. Zahiriddin Muhammad Bobur. Monografiya.-T.:2024.B-294.
2. Eshov.B.J., Odilov.A.A. O'zbekiston tarixi. II-kitob.-T:,"Donishmand ziyosi". 2020.B-149.
3. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА.*Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307
4. Bobur Xalqaro Fondi "Zahiriddin Muhammad Bobur" T.: Sharq -2008. B 9-10
5. Fayziev T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari.T. – B. 64.
6. Utaeva Feruza Kholmamatovna. Activities and Financial Status of Bukhara Mangit Rulers in The Years Of Independence. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME ISSN 2694-9970 684. 2021 4 (4), 684-688
7. Ўтаева Феруза Аштархоний ҳукмдорлари фаолияти мустақиллик йилларидаги матбуот талқинида. Хоразм Маъмун Академияси 2021 йил №, -Б 80-85

YENGIL SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA XOTIN-QIZLARNING

O'RNI

*Utayeva Feruza Xolmamatovna,
Buxoro davlat universiteti
Sharipova Marjona Ravshan qizi
Buxoro davlat universiteti I-kurs magist*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Buxoroda yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik, tikuvchilik, ipakchilik sanoati tarixiga to'xtalib o'tilgan. Fabrikalarda tikuv-to'quv mashinalarida xotin-qizlarning

		<i>уйғониш – Учинчи Ренессанс асоси</i>	
100.	Ф.У.Темиров Дилфуза Иззатова	<i>Жадидлар илмий – маънавий меросини ўрганиш – Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанс пойдеворидир</i>	532
101.	Ф.У.Темиров Феруза Камолова	<i>Шайбонийлар даврида Бухорода адабиёт, санъат ва меъморчилик</i>	536
102.	To‘ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi	<i>Zomin tumani maktabgacha va maktab ta’limi tarixi (1991-2011 yillar)</i>	540
103.	Ro‘ziyev Mirzobek Oltiboy o‘g‘li	<i>Gender tengligi huquq amaliyotidagi ayrim muommolar tahlili</i>	549
104.	Ro‘ziyev Mirzobek Oltiboy o‘g‘li	<i>Konstitutsiya - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar poydevori</i>	556
105.	Eshchanov Hurmat Matnazarovich	<i>Mustaqillik yillarida o‘zbekiston hududi ilk temir davri mudofaa inshootlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga doir ba’zi mulohazalar</i>	561
106.	Xamidova Shoiria Rasulovna	<i>O‘zbekiston Respublikasi Paralimpiya qo‘mitasi Jizzax viloyati hududiy bo‘limi tarixi xususida (2022-2023yy)</i>	563
107.	Murodova Mavjuda Alisherovna	<i>Jaloliddin Manguberdining fe‘l-atvori va uning o‘ziga xos xususiyatlari</i>	575
108.	Obidova Gulchehra Utayeva Feruza	<i>Boburiylar sulolasi davrida hindiston me‘morchiligi</i>	580
109.	Utayeva Feruza Sharipova Marjona	<i>Yengil sanoatni rivojlantirishda xotin- qizlarning o‘rni</i>	585
110.	Xolmurodova Nasiba Yunus qizi	<i>Arxeologik va yozma manbalar asosida buxoro tarixining o‘rganilishi</i>	590
111.	Haitov J.Sh.	<i>“Turkiston to‘plami” – Amerika paxta navi tarqalishi tarixini o‘rganishning muhim manbasi</i>	596
112.	Sharipova Parizod Quvvatjon qizi	<i>Mustaqillik davrida Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi yengil sanoat</i>	601
113.	Назарова Райхон Шавкатовна	<i>Художественные приёмы и их роль в раскрытии образов исторических личностей в трилогии хилари мантел</i>	610
114.	Narzulloyev Farrux Nozim o'g'li	<i>Buxoro vohasi shaharsozligida mudofaa devorlarining o'rni (kanpirak devori misolida)</i>	614
115.	Ф.У.Темиров А.Ро‘зиyev	<i>Mo‘g‘illar istilosi davri manbalarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti</i>	621
116.	Sh. F. Karimov	<i>Turar-joylarni o‘rganish moddiy madaniyatning muhim komponenti</i>	626
117.	Islomova Sarvinoz	<i>Shayboniylar davri davlat boshqaruvi</i>	629
118.	Qudratova Kumushoy Murodon qizi	<i>BMТning inson huquqlarini himoya qilishdagi yutuqlari va kamchiliklari</i>	635
119.	Hikmatova Salomat	<i>Ilk temir davri Baqtriya shaharsozligi</i>	646



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA
FAOL ISHTIROKI UCHUN

Utayeva Feruza

SERTIFIKAT

BILAN TAQDIRLANADI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI REKTORI:

O.XAMIDOV

Buxoro 2025-yil 12-mart

